

“BOBURNOMA” ASARI QO‘LYOZMALARI

Davronbek Olimjonov

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

davronbek.olimjonov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarining Rossiya va O‘zbekistonda saqlanayotgan qo‘lyozmalarining eng mashhur nusxalari haqida atroflicha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: A.Beverij, Kerr nusxasi, Senkovskiy nusxasi, Xiva nusxasi, Toshkent nusxalari, Sank-Peterburg, Qozon toshbosmasi.

Annotation: This article provides detailed information about the most famous manuscripts of Zahiriddin Muhammad Babur's "Boburnoma" preserved in Russia and Uzbekistan.

Keywords: A. Beveridge, Kerr copy, Senkovsky copy, Khiva copy, Tashkent copies, St. Petersburg, Kazan lithograph.

“Boburnoma” Sharqning eng durdona asarlaridan bo‘lganligi sababli, yozilgan davrdan boshlab turli tillarga tarjima va asarining qo‘lyozmalari keng tarqaladi. Mavjud nusxalarning ko‘pchiligi XVII va XVIII asrlarda turli kishilar tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, ulardan aksariyati Sankt-Peterburgda, qolganlari Kalkutta, Dehli, Agra, Haydarobod, Hindiston, Manchestr, London, Edinburg, Toshkent va boshqa shaharlarda saqlanadi. Lekin bu qo‘lyozmalar hozirgacha bir-biri bilan qiyoslab, o‘rganilmagan. Ulardagi farqlarni ko‘rsatgan holda asarning ilmiy-tanqidiy matni hanuzgacha yaratilgan emas. Ingliz sharqshunos olimasi A.S. Beverij va o‘zbek olimi Porso Shamsiyev «Boburnoma» qo‘lyozmalarini tekshirish va nashr etish sohasida tadqiqiy ishlarni olib borgan bo‘lsalar ham ilmiy-tanqidiy matnni tuzishga muvassar bo‘la olmaganlar. Faqatgina yaponiyalik tarixchi olim Eiji Mano Haydarobod va Kerr



nusxalarini o‘rganib tanqidiy-qiyosiy matnini yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Lekin bu matnni “Boburnoma”ning to‘liq tanqidiy matni yaratildi, degani emas.

“Boburnoma” asari qo‘lyozma nusxalari haqida to‘laroq ma‘lumotni ingliz sharqshunosi Anette Beverijning asarga bag‘ishlangan maqolalaridan olish mumkin.

Asarning eng ko‘p tarqalgan qo‘lyozma nusxalarining aksari qismi Rossiya kutubxonalarida saqlanmoqda. Ular Sankt-Peterburg va Moskvada saqlanadi. Bu qo‘lyozmalar hajm va mazmun jihatidan bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Lekin har bir qo‘lyozma ayrim afzallik va kamchiliklarga egadir.

Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sank Peterburg bo‘limida 685-raqam bilan saqlanayotgan “Boburnoma” asarining qo‘lyozmai juda karakterlidir. Temur Po‘lat ismli shaxs 1714-yili Buxoroga safar qilib asar qo‘lyozmasini qo‘lga kiritgan va 1725-yilda Sank Peteburgga olib kelgan, undan sharqshunos olim G.Y.Ker 1737-yilda nusxa sifatida ko‘chirgan. 420 varaqdan iborat bo‘lgan bu qo‘lyozma to‘liq bo‘lib, u Ilminskiy nashriga asos bo‘lgan va eng noyob qo‘lyozmalardan biri hisoblanadi. Fanda mazkur nusxani “Kerr nusxasi”¹ deb yuritiladi. U qora siyoh bilan varaqning bir tomoniga yozilgan bo‘lib, varaqning ikkinchi tomoni lotin tiliga tajjima qilish uchun qoldirilgan. Kerr nusxasini A.Beverij tomonidan faksimile holida nashr etilgan. Haydarobod nusxasiga solishtirish shuni ko‘rsatadiki, Kerr nusxasi o‘zining til xususiyatlari va hajmi jihatidan Haydarobod nusxasidan qolishmaydi. Lekin Kerr nusxasining 188-betida «Boysung‘ur Mirzo o‘z oldida ham ko‘p mo‘g‘ul kishisining bo‘ynig‘a urdurdi» degandan keyingi tasvir varaq hoshiyasiga fors tilida yozilgan. Haydarobod nusxasida esa bu tasvir o‘zbek tilida yozilgan. Bundan tashqari, Kerr nusxasida 1021-betdan 1084-betgacha Boburshoh qalamiga xos bo‘lmagan tarix ham mavjud. Bunda Temur, Shohruh, Ulug‘bek, Abusaid, Sulton Husayn, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Umarshayx, Bobur mirzo (Zahiriddin Bobur) va Humoyun podshohning qisqa-qisqa tarixlari

¹ Sankt-Peterburg Sharqshunoslik instituti kutubxonasi, inventar № 685

berilgan. Bu tarix, shubhasiz, keyingi ko‘chiruvchilar tomonidan qo‘shilgan bo‘lishi kerak. Bunday tarix Haydarobod nusxasida uchramaydi.

Sankt-Peterburg Davlat universiteti Sharq qo‘lyozmalari kutubxonasida saqlanayotgan “Fayzixonov nusxasi”² o‘zining hajmi va tuzilishi jihatidan Kerr nusxasi bilan bir xildir. 331 varaqdan iborat bu qo‘lyozma hijriy 1255-yil, sha‘bon oyining 29-sida (1839-yilning noyabrida) Mulla Fayzxon tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, u avval sharqshunos olim Mirza Kozimbekning shaxsiy kutubxonasida saqlangan. Kozimbekning vafotidan keyin, 1871-yili universitet kutubxonasiga topshirilgan. Asarning oxirida «Asli nusxada tammat sana 1026 yozilmishdir» deyilgan. Kerr nusxasining oxirida esa, tammat sana 1126 deb yozilgan. Bu ikki nusxadagi 100 yil farq ko‘chiruvchining tasodifiy xatosi bo‘lishi mumkin. Chunki har ikki nusxani bir-biriga qiyoslash ularga bir qo‘lyozma asos bo‘lganligini ko‘rsatadi. Sankt-Peterburg Davlat universitetida saqlanayotgan nusxaning Kerr nusxasidan farqli tomoni shundaki, 224-betdan 277-betgacha teskari yopishtirilgan, 145-betda esa katta bir jumla tushib qolgan. Qo‘lyozma notugal hisoblanadi.

Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar akademiyasi Osiyo muzeyida saqlanayotgan “Senkovskiy nusxasi”, “Boburnoma” asari qo‘lyozmalari ichida juda e‘tiborlidir. 590-raqam bilan saqlanayotgan bu qo‘lyozma, hijriy 1121-(milodiy 1709) yilda, rajab oyining boshi, dushanba kuni mulla Abdulvahob oxund G‘ijduvoni tomonidan Buxoroda yozib tugatilgan. Bu qo‘lyozma Senkovskiy tomonidan 1824-yilda Nazarboy Turkistoniy ismli buxorolik savdogardan sotib olingan. Senkovskiy nusxasi nasta‘liq yozuvida yozilgan, sarlavhalari qizil siyohda bo‘lib, shaharlar, joylar va ayrim voqealar nomi esa varaq hoshiyasiga yozib borilgan. Lekin sarlavhalaming ko‘pchiligi fors tilida.

Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin nomli ommaviy kutubxonada Typ.HC.104 raqami bilan, shartli ravishda “Xiva nusxasi” deb nomlanadigan

² Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari kutubxonasi, inventar № 3814.

qo'lyozma saqlanmoqda. 574 varaqdan iborat bu qo'lyozmani ko'chiruvchi shaxsning nomi hech qayerda ko'rsatilmagan. Lekin ko'chiruvchi kitob oxirida bu asar hijriy 1278-yil, zulhijja oyining o'n yettisida, yakshanba kuni (1861-yil) Xoqon ibn al Xoqon hazrat Said Muhammadxonning buyrug'iga muvofiq ko'chirilganligini ko'rsatadi. Bu esa asar Xivada ko'chirilgan, degan xulosani chiqarishga asos bo'ladi.

Qo'lyozma nasta'liq xati bilan chiroyli yozilgan, sarlavhalari qizil siyohda. Sarlavhalar arab tili bilan bir qatorda uning o'zbek tilidagi tarjimasi bilan yozilgan. Masalan, **“Vaqoyin sanai ihdo va tis'a mia, ya'ni tarix hijriyning to'qqiz yuz dog'i birinchi yili vaqoe”** Bu qo'lyozmada Kerr va Sankt-Peterburg Davlat universitetining nusxalarida mavjud bo'lgan qo'shimcha tarix yo'q. Ammo ko'chiruvchi Bobur tiliga xos bo'lgan bir qancha so'zlami yangi so'zlar bilan almashtirgan: vale - ammo (10-bet), hiyli - ko'p (2-bet), ilik - qo'l (21-bet), ilgariroq - yaqinroq (21-bet), yerida - o'rnida (15-bet), kam obroq yerdur - suyi kamroq bo'lur (70-bet) va boshqalar. Bulaming hammasi “Boburnoma”ni ko'chiruvchining aralashuvi natijasida ayrim leksik o'zgarishlarga uchragandan keyingi nusxalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasi H.Sulaymon fondida 2588 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 1880-yili N.Ilminskiy bosmasi asosida ko'chirilgan nuqsonli nusxa. 9377 raqami bilan saqlanayotgan ikkinchi bir qo'lyozma 1936-yilda yozilgan, tugallangan nusxa hisoblanadi. Bu nusxada ham qator leksik va morfologik xarakterdagi o'zgarishlar bor. Shu institutda yana 1908-yilda ko'chirilgan, 13 raqami bilan, 565 varaqdan iborat qo'lyozma mavjud, lekin notug'aldir.

Yuqoridagilardan tashqari Boku va Dushanbeda saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari mavjud.

“Boburnoma” asl matn holida birinchi marta rus sharqshunosi N.I.Ilminskiy tomonidan professor G.Y.Kerr nusxasi asosida 1857-yilda Qozonda to'la nashr etildi.



1905-yilda ingliz sharqshunosi A.Beverij «Boburnoma»ning Haydarobodagi Salarjang muzeyidan topib, faksimilesini sinkografiyada nashr etadi. Haydarobod nusxasining ko‘chirilgan yili va ko‘chiruvchisi ma’lum bo‘lmasa-da, asl nusxadan yoki unga yaqinroq bir nusxadan ko‘chirilgani ma’lum. Bu nusxani 1700-yilda ko‘chirilgani ham taxmin qilinadi. Shunday qilib biz “Boburnoma”ning har xil ko‘chirma nusxalaridan tashqari Qozon hamda Londonda nashr qilingan ikki bosma nusxasiga egamiz.

“Boburnoma”ning noma’lum bir nusxasidan olingan parchalar birinchi marotaba 1705-yilda Vitsen tomonidan Amŕterdamda nashr ettirilgan. Unga “Tatarlar mamlakatining sharqiy ham shimoliy qismining jug‘rofiy ta’rifi” deb nom berilgan. J.Leyden, V.Erskin “Boburnoma”ning o‘zbekcha va forsha nusxalarini solishtirib, ingliz tiliga tarjima qilib, 1826-yilda Londonda chop ettirdi³. Bu tarjima L.U.King tomonidan biroz to‘ldirilib, Londonda qayta nashr qilingan. Birinchi ingliz tilidagi tarjima A.Kayzer tomonidan qisqartirib, nemis tiliga tarjima qilingan va 1828-yilda Leypsigda nashr qilingan. Pave de Kurteyl esa “Boburnoma”ning qadimiy o‘zbekcha qo‘lyozmalaridan birini 1871-yilda to‘la ravishda fransuz tiliga tajjima qilib, Parijda nashr qilgan. Hozirga qadar ham sharqshunoslar, tarixchilar Qozonda hamda Londonda bosilgan mazkur matnlardan va ba’zi kutubxonalarda saqlanayotgan qo‘lyozmalardan foydalanib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boburnoma. Sankt-Peterburg. Sharq qo‘lyozmalari kutubxonasi.
2. Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari kutubxonasi, inventar № 3814.
3. Hindison tarixi. 9-nashr. London, 1905. - B. 429-bet.

³Javoharlal Neru, Hindiston tarixi. 9-nashr. London, 1905,429-bet.